

## 9-sinf ona tili

### 4-CHSB

#### II variant

1.(B – 2). Imloviy jihatdan TO‘G‘RI yozilgan so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) tumtaraqay, na’munali, ketchup
- B) xandalak, muvaffaqqiyat, baxo
- C) hamdard, rozetka, kalovlanmoq
- D) gavdali, maslaxat, pachooq

2.(B – 2). Berilgan parcha matnning qaysi turiga mansub ekanligini aniqlang.

*Shundan keyin har kuni kelib, xabar olib turish odatim bo‘lib qoldi. Uni davolayotgan shifokorlar bilan uchrashib, ahvolidan xabar olib turdim, yaxshiroq qarashlarini iltimos qildim. Uch – to ‘rt kun o ‘tgandan keyin o ‘rnidan turib yuradigan bo ‘ldi. Meni ko ‘rganda, chehrasi ochilishini sezib, bir qadar sevinib qo ‘ydim. Kasalxona bog ‘iga chiqib o ‘tirib, anch-muncha suhbatlashadigan bo ‘lib qoldik. Oramizdagি rasmiy munosabat xiyla arib, qandaydir inoqlik paydo bo ‘ldi.*

- A) Hikoya matni
- B) Muhokama matni
- C) Tasviriy matn
- D) Makromatn

3.(B – 2). Qaysi qatordagi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud?

- A) Eshik sharaqlab ochildi, xonaga birin-ketin aktyorlar kirib keldi.
- B) Bog‘imizda olma, o‘rik; kartoshka, sabzi yetishtiriladi.
- C) Men, albatta, bu yil universitet talabasi bo‘laman.
- D) Yigitlar hovli tozalashdi – qizlar oynalarni artishdi.

4.(B – 2). Bog‘langan qo‘shma gap berilgan javobni aniqlang.

- A) Men senga shunday kitoblar keltirayki, ulardan olamni o‘rganasan.
- B) Ishlab topgan chimdib yeydi, ammo ishlamay topgan oshamlab.
- C) Inson ma’naviyatini shakllanishida oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.
- D) Ochiq derazadan Shodasoyning salqini va g‘arq pishgan behi hidi xonaga kirdi.

5.(Q – 2,8). Qaysi qatordagi gapda tinish belgisi tushirib qoldirilsa, gapning mazmuniga ta’sir qiladi?

- A) Islohotlar bir kun kelib o‘z mevasini berishiga, albatta, ishonaman.
- B) To‘g‘ri, yo‘llarda ham biz o‘ylamagan qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin.
- C) Dadam shu atrofdan – qishloq chiqaverishidan – do‘kon qidirdi.
- D) Siddiqjon to‘xtadi: orqasidan kimdir to‘xtovsiz chaqirib kelayotgan edi.

6.(Q – 2,8). Qaysi javobdagи gaplar juftligida vergul bir xil punktuatsion qoida asosida qo‘llangan?

- A) Biz seni hech kimga bermaymiz, jonajon O‘zbekiston.//  
Bajarilmay qolib ketgan uy vazifalari, hammangizga xayr.
- B) Zal jim, xalq parda ochilishini sabrsizlik bilan kutmoqda.//  
Darsga kech qolgani uchun emas, balki vazifasi uyda qolib ketgani uchun yig‘ladi.
- C) Men, albatta, ota-onamning ishonchini oqlashga harakat qilaman.//

Bu gaplarni Nodira aytgani shubhasiz, dugonajon.

D) Daftar, kitob, ruchka sotib olish uchun onam bilan bozorga bordik.//

Bizning, yoshlarining, fikrlarini ham inobatga olishingizni so‘raymiz.

7.(Q – 2,8). Qaysi qatordagi gapda ***ketmoq*** so‘zi ***arimoq*** ma’nosida qo‘llangan?

A) Shunday rohat turmushimizdan, shunday shirin umrimizdan darrov bir yili ketdimi?

B) Senday aqli raso, tushunadigan odam bo‘lsa, hech qachon zavoddan ketmas edim.

C) Akasi uchuvchi edi, buni qarangki, ukasi ham uning orqasidan ketdi.

D) Keksalar bor xonadonlardan xayr-u barakat ketmaydi.

8.(Q – 2,8). Quyida berilgan gaplarni qaysi grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

1. *Har qanday qonunga chap berish mumkin.*

2. *Uyatga chap berib bo‘lmaydi.*

A) lekin

B) yoki

C) shu sababli

D) va

9.(Q – 2,8). Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilari to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

*Onam Barcha jabr-u sitamlardan o‘tgan endigina sening qo‘lingdan tutgan seni yo‘qotib qo‘ymaslik maqsadida sen uchun yashayotganlarning orzusisan der edi*

A) “ , – , ” , – .

B) : “ , ” , – .

C) : “ , , ” , – .

D) “ , , ” , – .

10.(Q – 2,8). Qaysi qatordagi gapda // belgisi o‘rniga tire qo‘yib bo‘lMAydi?

A) Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish// katta gunoh.

B) Jismimiz yo‘qolur// o‘chmas nomimiz.

C) Tong otdi// daraxtlardagi qushlar sayray boshladi.

D) Buyuk asar// hayotning yozuvdag‘i chiroylı aksi.

11.(Q – 2,8). Sodda gap mazmuniga mos ravishda grammatic jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgan ergashgan qo‘shma gapni aniqlang.

*Qobiliyatli odamlar xayoliga kimningdir yoki nimaningdir tasvirini keltira oladi.*

A) Tasavvur odamning xayoliga kimningdir yoki nimaningdir tasvirini keltira olish qobiliyatidir.

B) Shunday qobiliyatli odamlar borki, ular xayoliga kimningdir yoki nimaningdir tasvirini keltira oladi.

C) Odamda tasavvur qobiliyati bor: u xayoliga kimningdir yoki nimaningdir tasvirini keltira oladi.

D) Odamda tasavvur bor va u xayoliga kimningdir yoki nimaningdir tasvirini keltira oladi.

12.(Q – 2,8). Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo‘llanish sababi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

*Tabiat hodisalari: shamol, qor, yomg'ir o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.*

- A) Uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llangani uchun.
- B) O'zidan oldingi bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun.
- C) Qo'shma gap qismlari bir paytda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarini ifodalagani uchun.
- D) Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun.

13.(Q – 2,8). Mazkur gapda qo'llangan tinish belgilari yuzasidan bildirilgan to'g'ri hukmlarni aniqlang.

*O'g'lim, sen hamisha yaxshilar bilan birga bo'l, chunki yaxshi odamlardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Shuni unutmaginki, yaxshilik ham, yomonlik ham, albatta, javobsiz qolmaydi. Yaxshilik qilish – katta savob.*

- 1. Ajratilgan bo'laklarni ajratish uchun verguldan foydalanilgan.
  - 2. Ergashgan qo'shma gaplar orasida vergul qo'yilgan.
  - 3. Undalmani boshqa gap bo'laklaridan ajratish uchun vergul qo'yilgan.
  - 4. Ega va ot kesim orasida tire qo'yilgan.
  - 5. Uyushiq bo'laklar orasida vergul qo'yilgan.
- A) 1, 2, 3, 4,
  - B) faqat 5
  - C) 1, 3, 5
  - D) 2, 3, 4, 5

14.(Q – 2,8). Qaysi javobdag'i gaplar juftligida tire bir xil punktuatsion qoida asosida qo'llangan?

- A) Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' – piyozi//  
Odam Vatanni sevar, bulbul – chamanni.
- B) Yangilanish insonga xos – yangilanishni inkor etish nodonga xos//  
Mo'minlikning chin belgisi – hayot sinovlariga sabr qilish.
- C) Sevmoq – kimningdir istak xohishini o'zingnikidan-da ustun qo'ymoq.  
Yolg'on gap yomon – kulfat keltiradigan rost gap yolg'ondan yomon.
- D) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si//  
Uyda qadam bosishga joy yo'q – hamma joy o'yinchoq.

15. (M – 4). Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan?

Uzum tokning g'ujumlardan iborat mevasidir. (1) **Botanik jihatdan rezavor meva hisoblanadi.** Uzumni vino, murabbo, uzum sharbati, jele, uzum urug'i ekstrakti, sirka va uzum urug'i yog'i kabilarni tayyorlashda ishlatish yoki quritib, mayiz hosil qilish mumkin. (2) **Uzum klimakterik turdag'i meva hisoblanadi.**

(3) **Xom uzum tarkibida 81% suv, 18% uglevodlar, 1% protein va oz miqdorda yog'bo'ladi.** Uzumchilik aholini yangi uzum, mayiz bilan, vinochilik, konserva sanoatlarini xomashyo bilan ta'minlaydi. Uzumchilikning to'rtta asosiy yo'nalishi: xo'raki uzum yetishtirish, mayiz quritish, texnik maqsadlarda uzum yetishtirish (konserva mahsulotlari, sharbatlar, konsentratlar tayyorlash), vinochilik (xomashyo tayyorlash) sohalari mavjud. (4) **Shu bilan bir qatorda, uzumdan murabbo va jele tayyorlashda ham keng foydalaniladi.**

- A) 1
- B) 2

- C) 3
- D) 4